

**O'ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA TARQALGAN RODENTIA TURKUMINING TABIATDAGI
AHAMIYATI**

Tursunov O. T.

O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent tursunovolim04@gmail.com

Annotation. *In this article, the ecological status of the Rodentia family distributed in Uzbekistan, its importance, and the relationships between representatives of other families are presented. The information about the place of representatives of the category in nature, the fact that they are an integral part of biological diversity and an integral part of biological relations is presented.*

Hayvonot dunyosi tabiatning ajralmas qismi sifatida insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Turlarning tabiiy yashash muhitlarining buzilishi nafaqat ularning tarqalishi, soni va ekologiyasining ayrim jihatlariga, balki ularning ahamiyatida ham o'ziga xos o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Tabiatdan foydalanishning kuchayishi oqibatida, O'zbekistondagi ko'plab hayvon turlari kuchli antropogen ta'sir ostida qolib, ularning yashash joylari va soni qisqardi, ba'zilari esa butunlay yo'q bo'lib ketdi. Ayniqsa ov obyektlari sifatida katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sutemizuvchilar, jumladan kemiruvchilarning ov ahamiyatiga ega bo'lgan turlarini ko'plab qirilishi, ayrim sinantrop turlar sonining keskin oshishi, iqlimlashtirilgan turlar hisobiga mahalliy fauna tarkibida sodir bo'layotgan transformasiyalar va shu kabi jarayonlar turlarning tabiatdagi ahamiyatiga aloqador muvozanatning bir qadar o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Kemiruvchilar ham boshqa hayvonlar kabi tabiiy sharoitda o'zaro boshqa hayvonlar bilan hamda tabiatning notirik obyektlari bilan uzviy aloqada mavjud bo'la oladi. Kemiruvchilarning o'simliklar va boshqa turdagi hayvonlar bilan aloqasi juda xilma-xil bo'lishi mumkin. Bunday munosabatlar topik, forik, fabrik, trofik va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Ayniqsa kemiruvchilarning tuproq bilan bo'ladigan turli-tuman aloqalari boshqa hayvon guruhlariga qaraganda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Ko'rsichqonlar, yumronqoziqlar, sichqonlar va boshqalar oziqlanish va boshpana sifatida foydalanish uchun yil davomida tuproqning turi qatlamlarida faoliyat ko'rsatadi. Buning natijasida tuproq hosil bo'lishi, uning kislorod bilan boyishi, aralashuvi va boshqa edafik xususiyatlari o'zgaradi. Kemiruvchilarning uya kameralarida ozuqa zahiralarining va nobud bo'lgan individlar qoldiqlarining qolib ketishi tuproqning organik moddalar bilan boyishiga va hosildorligini oshishiga sabab bo'ladi [1].

Bu jarayon boshqa turlarning yashashi uchun qulay sharoit ham yaratadi. Cho'lda o'simliklarning siyrakligi va rel'yefning nisbatan tekistligi boshpana rolini o'tovchi joylarning tanqisligiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mayda hayvonlarning boshqa turdagi yirik hayvonlar boshpanasidan foydalanishga olib kelgan. Jumladan, katta qumsichqonning uyasida 300 ga yaqin turdagi hayvonlarning yashashi aniqlangan. Hatto to'rg'aylar yozgi issiqdan saqlanish maqsadida kemiruvchilarning uyasidan boshpana sifatida foydalanishi qayd etilgan.

Kemiruvchilar o'simlik urug'larini tarqatishda ham ishtirok etadi. Bunday urug'larning tuproq ostiga kiritilishi ularning unib chiqishini yaxshilaydi va nihoyat o'simliklarning areallarni kengayishini taminlaydi [2].

Kemiruvchilar juda ko'p yirtqich qushlar va sut emizuvchilarning asosiy ozuqa obyekti sanaladi. Ushbu yirtqichlarning soni asosan ularning ozuqasi sanalgan kemiruvchilarning soni bilan bog'liq bo'ladi. Bunday "yirtqich-o'lja" tipidagi munosabatlar orqali turlar trofik jihatdan bir-birlarining sonini boshqaradi.

Keng maydonni egallagan cho'l zonasidagi kemiruvchilar juda ko'p miqdorda yer ostidagi tuproqni yer yuzasiga chiqaradi. Ayniqsa yoz oylarida ularning amaldagi uyalari oldida doimo nam tuproqni ko'rish mumkin. Bunday tuproq uyalarning ayni vaqtda foydalanilayotganligini ham belgilaydi. Tuproqning aralashuvi uning unumdorligini oshirib o'simliklarning o'sishi va tarqalishi uchun qulaylik yaratadi. Ikkinchi tomondan uya koloniyalari joylashgan joylarda o'simliklar qoplamining siyraklashib ketishi qayd etiladi va bu holat chorva mollarining o'tloqlariga ma'lum darajada ziyon yetkazadi [3,4].

Kemiruvchilar tabiatda ko'pgina yirtqichlarning ozuqa ratsioni tarkibida uchraydi. Ayniqsa yirtqich tungi qushlar ozuqasining ko'pgina qismini kemiruvchilar tashkil etadi. Jumladan, ukki (*Bubo bubo*) ozuqasi tarkibida 14 tur va 3 avlod kemiruvchilarining uchrashi, kemiruvchilar ozuqa tarkibidagi sut emizuvchilarning 81,1% ni tashkil etganligi to'g'risida ma'lumotlar bor [4]. A.S. Saidov (2012) Tojikistonda kemiruvchilarning amaliy ahamiyatini o'rganish orqali ular orasida xavfli infeksiyalarning tarqalishida ishtirok etuvchi turlarining mavjudligini qayd etgan. Jumladan, Hisor tizmasida archa dala sichqonini o'lat va listerioz infeksiyasini, Vax vodiysida qizil dumli qumsichqon gemorargik bezgakni va teri leyshmaniozini qo'zg'atuvchisining asosiy tashuvchisi ekanligini qayd etgan [5].

Shu jihatdan, O'zbekistonda uchrovchi kemiruvchilar (Rodentia) turkumi vakillarining bio-ekologik xususiyatlarini o'rganish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, oxirgi yillarda biotik va abiotik omillarning o'zgarishlari natijasida sodir bo'layotgan transformasion jarayonlar kemiruvchilarning tarqalishi va etologiyasida muayyan siljishlarning sodir bo'lishida namoyon bo'lmoqda. Bunday o'zgarishlarni o'rganish va qiyosiy jihatdan tahlil qilish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Литвинов Ю.Н. Влияние факторов различной природы на показатели разнообразия сообществ мелких млекопитающих // Успехи современной биологии.- 2004. -Т. 124.- № 6. - С. 612-621.

2. Туремуратов У. Северо-западный Кызылкум // Флористические и эколого-геоботанические исследования в Каракалпакии. Ташкент: Фан, 1987. Т. 1. - С. 72-92.
3. Реймов А.Р. Экология и популяционная изменчивость мелких млекопитающих Южного Приаралья в условиях антропогенной трансформации ландшафта. // Автореф. дисс. ... канд. биол. наук. –Институт зоологии АН РУз. –Ташкент, 2001.- С. 21.
4. Сержанов О.С., Асенов Г.А., Соколова Т.Ю., Акбутаев Ю.У., Пирназарова Е.С., Хасенов Е.Ш. Экологические особенности блох рода *Xenopsylla* в северо-Западных Кызылкумах и их роль в динамике эпизоотического процесса. // Вестник КК ФАН РУз. –Нукус, 1990. №3. – С. 52-56.
5. Саидов А.С. Распространения, систематика, экология и практическое значение грызунов Таджикистана. // Автореф. дисс. ... докт. биол. наук. Душанбе. 2012.- С. 44.
6. Yusupovich, R. A. (2022). ECOLOGICAL-FAUNIST ANALYSIS OF COXINALLIDES (COLEOPTERA, COCCINELLIDAE) OF THE KARSHI OAKH. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 331-335.
7. Saidmuratov S., Bobonazarov G., Nigmatullaev B. TO IMPROVE AND ANALYZE THE TEACHING METHODOLOGY OF "HIGH PLANTS MODULE" IN BOTANY FOR FUTURE BIOLOGISTS // SPAST Abstracts. – 2023. – Т. 2. – №. 02.
8. Hamzayeva N., Bobonazarov G., Jumanazarov A. SIRTUIN AND NUTRITIONAL HORMESIS. – 2020.
9. Qizi N. Z. B. QASHQDARYO HUDUDIDA TARQALGAN ORTHETRUM NEWMAN, 1833 AVLODIGA MANSUB NINACHILAR TAKSANOMIYASI VA MORFOBIOLOGIYASI // In The World Of Science and Education. – 2024. – №. 20 сентябрь БН. – С. 18-20.
10. Исакова, С. А., Дыйканбаева, Г. Ш., & Осташенко, А. Н. (2023). РАЗНЫЕ КЛАССЫ ГЕЛЬМИНТОВ ГРЫЗУНОВ (RODENTIA) ИЗ ИССЫК-КУЛЬСКОЙ КОТЛОВИНЫ. Исследование живой природы Кыргызстана, (1), 99-102.
11. Хосилова Г. и Исмаилова Г. (2021). ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ И НЕГАТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ МОЛЛЮСКОВ В БАЛАНСЕ ПРИРОДЫ. Научный прогресс, 2 (5), 397-400.
12. Qizi, N. Z. B. (2024). PROSPECTS FOR THE FUTURE STUDY OF THE ODONATA ORDER: A REVIEW OF PUBLISHED ARTICLES FROM THE SCOPUS DATABASE 2019–2023. *European science review*, (3-4), 13-22.